

Surxondaryo viloyati
tomonidan 2025-yil 29-dekabrda
2000-sonli qarori bilan



«TASDIQLANGAN»

“TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS
UNIVERSITETI”
ta’rischilarining
2025 yil “29” dekabrda
29-son qarori bilan



«TASDIQLAN»

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

nodavlat ta’lim muassasasining

NIZOMI

Termiz shahri –2025 yil

1.Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom nodavlat oliy ta'lim muassasasi – “Termiz iqtisodiyot va servis universiteti” (bundan buyon matnda **Universitet** deb yuritiladi)ning huquqiy holatini belgilab beradi, uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi normalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq faoliyat yuritish va tugatish tartibini belgilab beradi.

Universitet ushbu Nizomda nazarda tutilgan ta'lim sohasidagi va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish hamda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanish maqsadida tashkil etilgan xususiy tashkilot hisoblanadi.

1.2. Universitet yuridik shaxs hisoblanib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunlar, boshqa qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli hujjatlariga va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

1.3. Universitetning to‘liq nomi:

davlat tilida lotin alifbosida:

to‘liq nomi - TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI;

qisqartirilgan nomi - TISU;

davlat tilida kirill alifbosida:

to‘liq nomi - TERMIZ IQTISODIYO^T VA SERVIS UNIVERSITETI

qisqartirilgan nomi - TISU;

rus tilida:

to‘liq nomi – TERMEZSKIY UNIVERSITET EKONOMIKI I SERVISA;

qisqartirilgan nomi – TUES;

ingliz tilida:

to‘liq nomi – TERMEZ UNIVERSITY OF ECONOMICS AND SERVICE;

qisqartirilgan nomi – TUES.

Universitet faoliyati – ta’lim sohasidagi asosiy faoliyat;

Universitetda ta’lim shakli – kunduzgi. Shuningdek, ta’limning boshqa muqobil shakllari ham tashkil etilishi mumkin;

TISUda ta’lim tillari – o‘zbek, rus, ingliz va boshqa xorijiy tillar.

Mulkchilik shakli – xususiy (nodavlat);

1.4. Universitetning yuridik manzili: Termiz shahri, Mehriobod MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 134-uy, 6-xonadon.

1.5. Universitetning faoliyat va hujjatlar saqlanadigan joy quyidagi manzilda:

1) Termiz shahri, Bog‘ishamol MFY, Farovon 1-mavzesi, 4^B-uy;

2) Termiz shahri, Do‘stlik MFY, Al Xakim at-Termiziy ko‘chasi, 13-uy;

3) Termiz shahri, Bog‘ishamol MFY, Farovon 1-mavzesi, 4^T-uy.

4).Termiz shahri, Yulduz MFY, Ibn-Sino ko‘chasi, 38-B-uy.

1.6. TISU elektron pochta manzili: *university@tues.uz*

1.7. TISUning rasmiy veb-sayti: *tisu.uz*

Ehtiyojdan kelib chiqib faoliyat yuritish manzillari qo‘shilishi mumkin.

Universitet davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxsning huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

1.8. Universitet alohida mulkka, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar hududida bank hisobvaraqlari (shu jumladan, xorijiy valyutada)ga ega bo‘ladi, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo‘ladi, sudda, hakamlilik sudida va xalqaro arbitraj sudida da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Universitet o‘zining firma nomidan mutlaq foydalanish huquqiga ega.

1.9. Universitet ta‘lim-tarbiya majmualariga hamda o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga a‘zo bo‘lishga haqli.

1.10. Universitet Nizomda belgilangan vazifalariga muvofiq pullik ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishga haqli.

1.11. Universitetning muassislari:

USMANOV ChORShANBI BOZOROVICH – Pasporti AD 4136278. Termiz tumani IIV tomonidan 2013 yil 01 avgustda berilgan.

2. Universitet faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

2.1. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan litsenziya asosida ta‘lim faoliyatini yuritadi.

2.2. Universitet qonunchilikka zid bo‘lmagan holda ta‘lim va ilmiy tadqiqot sohasida quyidagi xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega:

- malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- treninglar, seminarlar, master-klasslar va o‘quv modullarini o‘tkazish;
- konsalting, ekspert xulosa, auditorlik, ta‘lim texnologiyalarini joriy etish xizmatlari;
- ilmiy-tadqiqot loyihalari, injiniring, innovatsion xizmatlar;
- ilmiy-uslubiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron platformalar yaratish va amaliyotga joriy qilish;

2.3. Universitet ustuvor faoliyati bilan bir qatorda, qonunchilikka muvofiq turli yo‘nalishlarda autsorsing va boshqa xizmat ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

2.4. Universitet o‘zining ommaviy axborot nashrlariga ega bo‘lish huquqiga ega.

2.5. Universitet oliy ta‘limning asosiy va qo‘shimcha ta‘lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta‘lim faoliyati bilan shug‘ullanadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv, pedagogik va ilmiy-uslubiy va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi.

2.6. Universitet ta‘sischiligidagi umumiy tipdagi va ixtisoslashtirilgan maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim hamda professional ta‘lim muassasalari, xususiy klinikalar tashkil etilishi mumkin.

2.7. Universitet qonun hujjatlari bilan ta‘qiqlanmagan quyidagi qo‘shimcha faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin:

Avtotransport va servis xizmatlari:

- transport vositalariga texnik va servis xizmati ko‘rsatish;
- avtomobillar uchun to‘xtash joylarini tashkil etish;

- aholi va tashkilotlardan transport vositalarini ijaraga olish va ijaraga berish;
- shahar ichida, shahar atrofida va shaharlararo yuk va yo'lovchi tashish xizmatlari;
- kompyuter va aloqa uskunalari o'rnatish, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish.

Yoqilg'i, moy va neft mahsulotlari xizmatlari:

- avtotransport va qishloq xo'jaligi texnikalarini AYoQSh orqali neft mahsulotlari bilan ta'minlash (maxsus ruxsatnoma asosida);
- moy almashtirish shaxobchalarini tashkil etish va ekspluatatsiya qilish, avtomobillarga gaz quyish shaxobchalari tashkil etish.

Qurilish va loyihalash ishlari:

- ro'p qavatli va yakka tartibdagi uy-joylar, mehmonxona, o'quvchi va talabalar yotoqxonasi qurish, ta'mirlash, joriy ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari;
- mexmonxona xizmati tashkil etish;
- bino va inshootlarni loyihalash;
- asfalt zavodi tashkil etish;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, olib kelish va sotish (g'isht, beton g'isht, sement, shebyon, oxak, buyoqlar, yog'och va metall mahsulotlari, plitkalar va h.k.).

Savdo-sotiq va distributsiya:

- ulgurji savdo;
- chakana savdo;
- oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- aholi va tashkilotlarga qurilish materiallari, xalq xo'jaligi mollari, oziq-ovqat mahsulotlarini ulgurji va chakana yetkazib berish;
- distribyutorlik va dillerlik xizmatlari;
- vositachilik xizmatlari.

Ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari:

- kafe, internet-kafe, qaxvaxona, bar, restoran, oshxona, choyxona, to'yxona;
- nonvoyxona tashkil etish va faoliyat yuritish;
- tug'ilgan kun, ko'rgazma, konferensiya, simpozium va turli tadbirlarni tashkil etish;
- shirinliklar (tort, pirojniy va h.k.) tayyorlash va sotish;
- non va non mahsulotlari, konditer, kulinariya mahsulotlari, makaron, ichimliklar (shu jumladan qadoqlangan ichimlik suvi va chanqoqbosti ichimliklar) ishlab chiqarish, qadoqlash va sotish;
- muzqaymoq, sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va eksport qilish.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati:

- chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, sabzavotchilik, uzumchilik va issiqxona xo'jaligini tashkil etish va rivojlantirish.
- dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini (go'sht, sut, sabzavot, meva va h.k.) xarid qilish, qayta ishlash, saqlash va sotish.
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki bozorga yetkazib berish va eksportni yo'lga qo'yish.

Axborot texnologiyalari va aloqa xizmatlari:

- sun'iy intellekt asosida kompyuter dasturlari, veb-saytlar yaratish.
- aloqa va internet xizmatlari ko'rsatish, provayderlik faoliyati.
- uyali aloqa vositalarini tarmoqqa ulash va texnik xizmat ko'rsatish.
- kompyuter xizmatlari ko'rsatuvchi internet-kafe tashkil etish.

Maslahat, audit va konsalting xizmatlari:

- marketing, konsalting, injiniring, lizing, dilerlik xizmatlari;

- auditorlik va soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish (ruxsatnoma bilan);

Ustaxona va ishlab chiqarish xizmatlari:

- temir va metallardan buyumlar ishlab chiqarish (eshik, deraza, panjara, ofis buyumlari va h.k.), o'rnatish va ta'mirlash;
- elektr payvandlash va kavsharlash ishlari;
- hunarmandchilik, kashtachilik, karving, kalligrafiya, esdalik sovg'alari tayyorlash va turli ustaxona ishlari.

Maishiy xizmatlar:

- sartaorshxona va go'zallik salonlari faoliyati;
- erkak va ayollar uchun sport zallari tashkil etish;
- har xil o'quv kurslarini tashkil etish (kompyuter, notiqlik san'ati, qayta tayyorlash kurslari, malaka oshirish kurslari tikish-bichish, qandolatchilik, buxgalteriya, abituriyentlar tayyorlash va h.k.) – ruxsatnoma talab qilingan hollarda.
- tipografiya va noshirlik xozmatlari.

Sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar ko'rsatish:

- tibbiy diagnostika va muolaja poliklinikasini tashkil etish va xizmat ko'rsatish;
- tish texnik xizmati ko'rsatish;
- xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlaridan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar olib kelish, o'rnatish va aholiga, tashkilot va korxonalariga tibbiy xizmatlar ko'rsatish;
- bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish;
- tibbiy laboratoriyalar tashkil etish;
- optika xizmati va savdo qilish do'konlarini ochish;
- dori-darmon va farmasevtika mahsulotlari bilan savdo qilish, dorixonalar tashkil etish (maxsus ruxsatnoma asosida);
- stomatologiya va poliklinika xizmatlarini ko'rsatish (maxsus ruxsatnoma asosida).
- shifokorlar va tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va stajirovkalarini tashkil etish.

2.8. Universitet ta'lim faoliyatini va maxsus ruxsatnoma talab etiladigan faoliyat turlarini ruxsatnoma (litsenziya) olganidan so'ng amalga oshiradi.

2.9. Universitet o'zining rasmiy to'liq firma nomi va joylashgan joyi ko'rsatilgan dumaloq muhriga, burchakli shtampi, emblemasiga va rasmiy blankalarga ega bo'ladi.

Muhrda Universitetning firma nomi xoxlagan xorijiy tilda ko'rsatilishi mumkin.

2.10. Universitetning tarkibiga mutaxassis tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha fakultetlar, ilmiy sohalari bo'yicha kafedralar, ilmiy-tadqiqot tuzilmalari, laboratoriyalar, boshqarmalar, departamentlar, markazlar, bo'limlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura ob'ektlari (kutubxonalar, yotoqxonalar, mehmonxonalar, tibbiy va klinik bazalar va Universitetning faoliyatini ta'minlovchi boshqa tuzilmalar kiradi.

2.11. Universitet mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamlar, shu jumladan valyuta bo'yicha hisob raqamlariga va boshqa rekvizitlarga ega bo'ladi.

2.12. Universitet mol-mulki ta'sischi, uchinchi shaxslarning maqsadli badallari, ixtiyoriy mulkiy badallar va hadyalardan, Nizom maqsadlari bo'yicha shartnomalarning bajarilishidan, tadbirkorlik faoliyatidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga zid bo'lmagan manbalaridan olinadigan mablag'lardan shakllantiriladi.

2.13. Universitet ta'lim, ilmiy, ma'muriy, moliya-iqtisodiy faoliyatda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, boshqa normativ huquqiy hujjatlar va mazkur Nizomga muvofiq lokal normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishda mustaqil hisoblanadi.

2.14. Universitet ta'limning mazmunini belgilashda, o'quv-metodik ta'minlash va amalga oshirayotgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim texnologiyalarini tanlashda erkin harakat qiladi.

2.15. Universitet O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq respublika hududida filial tashkil etishga va vakolatxona ochishga haqli.

2.16. Universitetning filiali va vakolatxonasi yuridik shaxs hisoblanmaydi, Universitet hisobidan mulk bilan ta'minlanadi va Universitet tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi. Filial va vakolatxonaning mulki alohida va Universitet balansida hisobga olinadi.

Filial va vakolatxonaning rahbari Universitet tomonidan tayinlanadi va berilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi.

3. Universitetning asosiy maqsadi va vazifalari

3.1. Har tomonlama rivojlangan, o'z Vatani fidoyisi, davlat va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, huquqiy qadriyatlarni chuqur anglovchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali, zamonaviy kadrlarni tayyorlash Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.

3.2. Ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, moliya, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, turizm va biznes, pedagogika, tibbiyot sohalarida hamda talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlaydi.

Universitetning asosiy vazifalari:

- shaxsning kasbiy shakllanishi, tegishli darajadagi bilim olish vositasida intellektual, madaniy va ma'naviy rivojlanishidagi ehtiyojlarini qondirish;

- jamiyatning malakali mutaxassislariga bo'lgan talabini tegishli kasbiy bilim olish darajasi orqali qondirish;

- ta'lim xizmatlari bozori monitoringini tashkil qilish, ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy yo'nalishlarini tahlil qilib borish;

- ko'rgazmalar, konferensiyalar, simpoziumlar, majlislar, seminarlarni tashkil qilish va o'tkazish;

- kadrlar tayyorlashda sohalar bo'yicha faoliyat olib borayotgan muassasalarda talabalar amaliyotini muntazam tashkil etish;

- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda xorijiy tajribani, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayoniga malakali, tajribali professor-o'qituvchilarni, shuningdek, xorijiy hamda xorijda tahsil olgan va malaka oshirgan mutaxassislarni jalb etish;

- hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ta'limning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va (yoki) malakasini oshirishni amalga oshirish;

- talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, yuksak madaniyat va ongini oshirish bo'yicha samarali tizimni yaratish, ularda vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, korrupsiyaga murossasizlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish;

- ilmiy izlanishlarga ehtiyojni inobatga olgan holda talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyani kuchaytirib borish;

- iqtisodiyot, pedagogika, tibbiyot sohalaridagi oliy ma'lumotli mutaxassislarini va ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- repetitorlik faoliyatini amalga oshirish;

- mutaxassis, ekspert sifatida tegishli idoralarga xulosa berish;

3.3. Universitet o'z faoliyatini amalga oshirishda axborot va nashr faoliyatini rivojlantirish, universitetning nufuzini oshirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ'ib qilish maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

- universitetning o'z nashriyatini tashkil etish;

- ilmiy jurnallar, ilmiy to'plamlar, byulletenlar, axborotnoma va boshqa ommaviy axborot nashrlarini chiqarish;

- elektron jurnallar, onlayn-ma'lumot platformalari va universitet mediaportalini tashkil etish;

- OAK, Scopus va Web of Science platformalari uchun ilmiy jurnallar tashkil etish va rivojlantirish.

3.4. Universitet o'z vazifalarini bajarish jarayonida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- davlat ta'lim standartlari asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni tashkil etish;

- fan va texnika rivojlangan davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalarning o'zaro tajriba almashuvini doimiy amalga oshirish;

- zamonaviy o'quv va moddiy-texnik bazalari yaratish, o'quv, ilmiy tadqiqot bo'linmalari, kafedralarini o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikatsiya tizimlari va dasturiy majmualari bilan ta'minlash;

- talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, tarbiyalashning turli shakl, usul va vositalari orqali jamiyatning to'laqonli a'zosi, vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- universitetning ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bakalavriat va magistratura mutaxassislikning to'lov-kontrakt miqdori hamda qabul parametrlarini (talabalikka qabul qilish, o'qishni ko'chirish va qayta tiklash, talabalar safidan chetlashtirish), shuningdek, o'qish muddatlari va talabalar tomonidan o'quv mashg'ulotlariga qatnashish tartibini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirish.

3.5. Ta'lim xizmatlari uchun kontrakt va boshqa to'lovlar miqdori Universitet Kengashi qaroriga asosan belgilanadi.

4. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti jamg'armasi

4.1. Universitetning Nizom jamg'armasi 30 653 113 090 (o'ttiz milliard olti yuz ellik uch million bir yuz o'n uch ming to'qson) so'mni tashkil etadi.

Nizom jamg'armasi ta'sischilarning qo'shgan ulushlari – pul mablag'lari va mulklari hisobidan shakllanadi.

4.2. Universitetning Nizom jamg'armasidagi ta'sischilarning ulushi quyidagicha taqsimlanadi:

USMANOV ChORShANBI BOZOROVICH 30 653 113 090 (o'ttiz milliard olti yuz ellik uch million bir yuz o'n uch ming to'qson) so'm, 100 foiz.

4.3. Universitetning Nizom jamg'armasi ta'sischilarning umumiy yig'ilish qarori bilan ko'paytirilishi hamda boshqa shaxslar ta'sischi sifatida qabul qilinishi mumkin.

4.4. Universitet ta'sischisini ta'sischilikdan chiqarish ta'sischilar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4.5. Universitet ta'sischilar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan boshqa yuridik shaxslarning ham ta'sischisi bo'lishi mumkin.

5. Oliy ta'lim muassasasini boshqarish

Universitetni boshqarish:

5.1. Universitetni boshqarishning oliy organi ta'sischilarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

5.2. Ta'sischilarning umumiy yig'ilishi moliyaviy yilning yakuni bo'yicha ikki oydan so'ng o'tkaziladi, bu yig'ilish navbatdagi yig'ilish hisoblanadi.

Bundan tashqari, o'ta muhim va zarur masalalar yuzasidan ta'sischilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish mumkin.

5.3. Ta'sischilar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Nizomga o'zgartirishlar kiritish;
- Universitet faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, uning mol-mulklarini shakllantirish va foydalanish prinsiplarini belgilash;
- rektorni tayinlash, nazorat-taftish komissiyasini tayinlash va ularning vakolatlarini belgilash;
- yillik faoliyat yakunlari – yillik hisobot va yillik hisob balansini tasdiqlash;
- Universitetning moliyaviy rejasini va unga o'zgartishlarni tasdiqlash;
- Universitetning filiallarini tashkil etish va vakolatxonasini ochish;
- Universitetni qayta tashkil qilish va tugatish, tugatish komissiyasini tashkil etish va uning hisobotini tasdiqlash;
- umumiy yig'ilish Universitet faoliyatini bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqishga haqli.

5.4. Ta'sischilarning umumiy yig'ilishi agar unda barcha ta'sischilar ishtirok etayotgan bo'lsa vakolatli hisoblanadi. Ta'sischilar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

5.5. Universitetni boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Nizomga muvofiq ta'sischilar qarori, Universitet Kengashlari orqali yakkaboshchilik, o'z o'zini boshqarish va kollegial jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Universitetni bevosita boshqarish ta'sischilar tomonidan lavozimga tayinlanadigan rektor tomonidan amalga oshiriladi va u ta'sischilarning umumiy yig'ilishi oldida hisobdor hisoblanadi.

Rektor:

- Universitet manfaatlarini himoya qiladi, uning nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi;
 - Universitet faoliyatini bevosita boshqaradi;
 - shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi;
 - ishonchnomalar, shu jumladan tarkibiy tuzilma rahbarlariga ishonchnomalar beradi;
 - bank va boshqa kredit muassasalarida hisobvaraqlar va boshqa hisobvaraqlarni ochadi;
 - o'z vakolatlari doirasida Universitetning barcha xodimlari uchun ijro etilishi majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi, intizomiy jazolar beradi;
 - yil yakuni bo'yicha mablag'lar tushumi va xarajati bo'yicha hisobot tuzib ta'sisчилarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritadi;
 - ajratilgan mablag'lar doirasida xodimlar jadvalini tasdiqlaydi va xodimlarning lavozim majburiyatlarini belgilab beradi;
 - buxgalteriya va statistika hisobotlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdim etadi;
 - Universitetning ichki mehnat qoidalarini ishlab chiqadi va qabul qiladi, o'quv dasturlarini, o'quv rejalarini, shuningdek boshqa lokal hujjatlarni shakllantiradi va tasdiqlaydi;
 - moddiy-texnika ta'minoti va o'quv jarayonini jihozlash masalalarini hal qiladi;
 - yillik kalendar o'quv jadvalini tasdiqlaydi;
 - ushbu Nizom va berilgan litsenziyaga muvofiq o'quv jarayonini tashkil etadi.
 - o'quv jarayonining mazmunini va tashkil qilish shaklini belgilab beradi;
- rektor yo'qligida uning vazifasini prorektorlardan biri (lavozimiga ko'ra) vaqtincha bajaradi.

5.6.Rektor oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, oliy ta'limga oid boshqa qonun xujjatlari, universitetning ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlar uchun to'la mas'uldir.

5.7.Universitetning xalqaro hamkorlik doirasida tuziladigan anglashuv memorandumlari, kelishuvlar, akademik almashinuv bo'yicha shartnomalar va boshqa nodavlat-xalqaro hujjatlar universitet nomidan rektor tomonidan imzolanadi.

5.8.Rektorning alohida buyrug'i yoki ta'sisчилarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan xalqaro xizmat safarlari davomida quyidagi shaxslar ham universitet nomidan memorandum va kelishuvlarni imzolash huquqiga ega:

- universitet ta'sisчилari;
- prorektorlar;
- rektor tomonidan vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslar.

5.9. Xalqaro hujjatlarni imzolash to'g'risidagi vakolat rasmiy ravishda chiqarilgan buyruq yoki ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

5.10. Xalqaro xizmat safarlari, delegatsiya tarkibini shakllantirish va xorijiy tashriflar protokolini yuritish tartibi universitetning "Xalqaro hamkorlik va tashqi aloqalar to'g'risidagi Nizom"i bilan tartibga solinadi.

6. Ta'lim-tarbiya jarayonlari ishtirokchilarining hamda va ilmiy-uslubiy ishlarning sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari

6.1. Talabalar:

Umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini bitirganlik to'g'risidagi ta'lim hujjatiga ega bo'lgan shaxslar o'zlarining arizalariga binoan kirish sinovlarida ishtirok etadi.

Kirish sinovlarini topshirib, talabalikka tavsiya etilgan abituriyent kontrakt to'lovlarini amalga oshirgunga qadar o'quv mashg'ulotlariga qatnashish huquqiga ega.

Belgilangan muddatlarda shartnoma to'lovlarini to'lamagan abituriyentlar talabalikka qabul qilinmaydi.

Talabalikka tavsiya etilib, shartnomada ko'rsatilgan to'lovlar miqdorini to'lagan hamda talab etilgan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etgan abituriyentlar rektor buyrug'i asosida talabalikka qabul qilinadi.

To'lov kontraktini amalga oshirgan va birinchi kursga talabalikka tavsiya etilgan "Ta'lim oluvchi" o'z xohishiga ko'ra o'qishni rad etgan taqdirda to'langan kontrakt to'lovining qaytariladigan qismi talabani ta'lim olish bilan bog'liq harajatlari (o'quv kunlari) inobatga olingan holda shartnomada belgilangan shartlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Talabalar kontrakt to'lovlari miqdori va shartlari, muddatlari, huquq va majburiyatlari ular bilan tuzilgan to'lov kontrakt shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Talaba tomonidan shartnoma to'lovi belgilangan muddatlarda amalga oshirilmasa, universitet talabani ogohlantirmasdan talabalar safidan chiqarishga haqli.

Boshqa oliy ta'lim tashkilotidan, jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotidan o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilgan va universitetga o'qishga qabul qilingan "Ta'lim oluvchi"ning soxta hujjatlardan foydalanganligi yoki o'qishni ko'chirish bilan bog'liq hujjatlarida yolg'on va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar mavjudligi aniqlansa, "Ta'lim oluvchi" universitet talabalarini safidan chiqariladi, bunda "Ta'lim oluvchi" tomonidan to'langan kontrakt to'lovi qaytarilmaydi.

Universitetning ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda talabalikka tavsiya etilgan abiturientlar Universitet Jamoatchilik kengashining qaroriga asosan kontrakt to'lovisiz talabalikka qabul qilinishi va o'qitilishi mumkin.

Belgilangan tartibda kirish sinovlarini topshirib, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida belgilangan to'lovni amalga oshirgan, qabul komissiyasining qarori yoki universitet rektori (yoki universitet filiali direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs universitetning talabasi hisoblanadi. Talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi elektron shaklda yuritiladi.

6.2. Universitet talabalarini quyidagi huquqlarga ega:

- o'quv reja va dasturlar asosida sifatli ta'lim olish;
- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;
- universitetning axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan, auditoriyalar va ta'lim jarayoniga oid vositalardan belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olish;

- ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi rahbariyatiga bildirish va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;

- ta'lim muassasasi va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;

- ilmiy tadqiqot ishlarida va ilmiy konferensiyalarda qatnashish va ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berish;

- universitetda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish.

- talaba tanlagan ta'lim yo'nalishi va ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishga haqli.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi kerak.

6.3. Talabalar universitetda tashkil etilgan "Rektor stipendiyasi" va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida belgilangan nomdor stipendiyalar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi hamda Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va Ulug'bek nomidagi Davlat stipendiyalari va boshqalar) olish uchun tanlovlarda universitetning tavsiyasiga asosan qatnashish huquqiga ega.

6.4. Talabalar universitetda tashkil etilgan olimpiyadalar, ko'rik tanlovlar, sport musoboqalari, turli xil anjuman va tadbirlarda hamda shunday turdagi respublika va xalqaro tadbirlarda ishtirok etish huquqiga ega.

6.5. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta'tillari davrida talabaga O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risidagi tartiblar asosida akademik ta'til berilishi mumkin.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni berilishi mumkin.

6.7. Turar joyga muhtoj talabalar universitetning talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan imkoniyat darajasida ta'minlanadi.

Bunda birinchi navbatda boquvchisini yo'qotgan yetim va chin yetim bo'lgan, nogironligi mavjud bo'lgan va kam ta'minlangan oila a'zosi bo'lgan talabalarga ustunlik beriladi.

6.8. Talabalar turar joylari to'lovlar miqdori va tartibi universitet tomonidan belgilanadi.

6.9. Universitetda ta'lim olayotgan talaba belgilangan to'lov-kontraktlarini o'z vaqtida to'lashi, oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda bajarishlari, universitetda belgilangan Ichki tartib qoidalariga, Odob-axloq kodeksi talablariga, talabalar turar joylaridagi tartib-qoidalarga rioya etishlari, darslarni uzrsiz sabablar bilan qoldirmasligi, universitet ma'muriyati va professor-o'qituvchilarining qonuniy ko'rsatma va buyruqlarini o'z vaqtida to'liq bajarishi, universitet hududida tartib-intizomga hamda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilishi, atrofdagilar bilan xushmuomalada bo'lishi shart.

6.10. universitetdan o'z hohishi yoki uzrli sabablarga ko'ra chetlashtirilgan talaba, universitetga o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

6.11. Universitetning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish huquqiga ega.

6.12. Xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan talabalarni universitetga o'qishini ko'chirish (o'qishga tiklash) mumkin emas.

6.13. Ushbu Nizom va universitetning Ichki tartib qoidalari va Odob axloq kodeksida nazarda tutilgan tartiblarni buzgan taqdirda talabaga nisbatan ogohlantirish va hayfsan intizomiy jazo choralari ko'riladi yoki talabalar safidan chetlatiladi.

6.14. Talaba universitetning talabalar safidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

- o'z hohishiga binoan;
- o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirishi munosabati bilan;
- ichki tartib qoidalari va odob axloq qoidalarida nazarda tutilgan tartiblarni buzganligi uchun;
- bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- o'qish uchun shartnomada belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli;
- talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzgani aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilgan talabalar safiga qayta tiklanmaydi);
- kursga qoldirilgan talaba o'qishini davom ettirish bo'yicha belgilangan muddatlarda murojaat qilmaganda;
- talaba abituriyent sifatida universitet qabul komissiyasiga taqdim etgan (topshirgan) hujjatlarning qalbakiligi yoki belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlansa;
- vafot etganligi sababli.

6.15. Intizomiy jazoga tortilgan talaba o'ziga qo'llanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori turuvchi tashkilotlarga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarning kasallik yoki ta'tilda bo'lgan vaqti hisobga olinmagan holda hatti-harakat aniqlangandan so'ng bir oydan va hatti-harakat sodir etilganidan so'ng olti oydan kechiktirilmay qo'llaniladi.

6.16. Talabalar kasallik paytida, akademik ta'til yoki homiladorlik va tug'ish holati bilan bog'liq bo'lgan ta'til paytlarda talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin emas.

Kasallik payti talaba (yoki uning ota-onasi) ariza va tegishli ma'lumotnomalar bilan, bir haftadan kechiktirmasdan universitetga ma'lum qilishi lozim.

6.17. Tinglovchilar:

Universitet qoshida tashkil etilgan markazlarda o'qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o'qitish shartlari va huquqlari qonun hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

6.18. Universitetning professor-o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari (personali):

- universitetda, rektor, rektor maslahatchisi, prorektor, dekan, kafedra mudiri, o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, professor, ilmiy xodim, bo'lim boshlig'i, departament va markaz direktori, bosh mutaxassis, yetakchi mutaxassis, I toifali mutaxassis, muhandis, texnik xodim, xo'jalik xodimi, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Rektor - O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Oliy majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi qarorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi buyruq va ko'rsatmalari ijrosini ta'minlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oliy ta'lim muassasasi nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, tashkilotlar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, oliy ta'lim tashkilotining mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanadi;

- universitet faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va universitetga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

- universitetning mol-mulk olishi, sotishi, ijaraga berishi, garovga qo'yishi bilan bog'liq bitimlar, shuningdek yirik bitimlar tuzishda ta'sischi roziligi olinadi;

- universitet faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun Kengash tashkil etadi va Kengashga rahbarlik qiladi, Kengash Nizomini tasdiqlaydi, Kengash o'z Nizomi asosida ish yuritadi;

- xodimlarning lavozim vakolatlarini va faoliyatini rejalashtiradi, muvofiqlashtiradi, boshqaradi, javobgarlikni belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, oliy ta'lim muassasasining boshqaruv lavozimlariga munosib kadrlarni tayyorlaydi;

- yuqori axloqiy-ma'naviy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy ish muhitida samarali faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega oliy ma'lumotli kadrlar yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

- universitetning barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

- xodimlarni O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga asosan belgilangan tartibda ishga olish va bo'shatishni amalga oshiradi;

- ta'sischi bilan kelishilgan holda rektor maslahatchisi, prorektor, fakultet dekani, kafedra mudiri va boshqaruv xodimlarini lavozimiga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi;

- universitet ta'sischi tashkilot va muassasalar rahbarlari, universitet filiali direktori va direktor o'rinbosarlari rektor tomonidan lavozimga qo'yiladi (universitet ta'sischi qarori bilan ham lavozimga tayinlanishi mumkin);

- universitetga talabalikka qabul qilish, o'qishni ko'chirish va qayta tiklash, talabalar safidan chetlashtirish, rag'batlantirish, intizomiy choralar ko'rish, ta'tillar berish yuzasidan buyruqlar chiqaradi;
- universitet tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarning vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlaydi;
- xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, lavozim maoshlariga oylik ustamalar va qo'shimchalarni belgilash, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, intizomiy jazo choralarini qo'llash masalalarini hal qiladi;
- tasdiqlangan xodimlar soni, tarif setkasi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi va xodimlarning shtatlar jadvalini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;
- universitetning amaldagi qonun hujjatlariga zid buyruqlarini bekor qiladi;
- universitet mol-mulkini asrashni nazorat qiladi va belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi, harajatlar smetasini tasdiqlaydi;
- ta'sischi bilan kelishilgan holda universitet daromadlari shakllantirilishi va ulardan samarali foydalanilishi ustidan nazorat qiladi;
- Universitetning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadi va ta'sischi bilan kelishilgan holda amalga oshiradi;
- universitetda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar faoliyatini tashkil etadi;
- talabgorlarni katta ilmiy xodim, dosent va professor ilmiy unvonlariga tavsiya etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga taqdimnoma kiritish, tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutiga qabul natijalarini tasdiqlash, dissertatsiya mavzulari bazasi, tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilarini tasdiqlaydi;
- fakultet va kafedralar faoliyati, o'quv jarayoni, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlari, boshqa turdagi mashg'ulotlar sifatining doimiy nazorat etilishini ta'minlaydi;
- ta'lim muassasasida mutaxassislar tayyorlanadigan yo'nalish va ixtisosliklar sohasining rivojlanish istiqbollari aniqlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadi (ilmiy-amaliy konferensiyalar va xalqaro anjumanlar o'tkazadi, axborot makonidan foydalanish sharoitlarini yaratadi, fan-texnika, texnologiyalar rivojlanishiga taalluqli adabiyot, informatsion materiallar bilan ta'minlaydi), buning asosida davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlarini takomillashtirib borishni ta'minlaydi;
- marketing xizmatini rivojlantirib, ta'lim yo'nalishi va ixtisosliklarga talab va ehtiyojni o'rganishni, bitiruvchilarni amalda ishga joylashishi tahlilini, mutaxassislarni maqsadli tayyorlash borasida hamkorlik shartnomalari tuzishni tashkil etadi;
- xorijiy hamkorlar bilan ilmiy-ijodiy aloqalarni rivojlantiradi, investitsiya va grantlar jalb etilishini ta'minlaydi, qo'shma korxonalar (kafedra, ilmiy markaz, ilmiy tadqiqotlar, loyihalar va h.k.)lar tashkil etish faoliyatini amalga oshiradi;

- jamoat muassasalari, vasiylar kengashi hamda boshqa shu kabi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyatini olib boradi;

- xorijiy mutaxassislarni Universitet va uning tarkibiy tuzilmasiga konsultant, ma'ruzachi va o'qituvchi sifatida jalb etib, ularga ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilaydi;

- Universitetning xalqaro nufuzini oshirish, milliy va xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida ta'lim, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va menejment sohalarida samarali strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etadi;

- ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha vakolatli organlar tomonidan belgilangan boshqa vazifalar ijrosini ta'minlaydi.

- kasaba uyushma qo'mitasi yoki universitetning boshqa vakolatli organi (Universitet Kengashi, jamoatchilik Kengashi) bilan kelishgan holda "Jamoat shartnomasi", "Ichki tartib qoidalari", "Odob-axloq kodeksi", "Vasiylik kengashi Nizomi", "Akademik ta'til berish to'g'risidagi Nizom", Bakalavriatga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom, Magistraturaga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom, Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom, O'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom, Kredit-modul tizimi bo'yicha talabalarning ta'lim natijalarini baholash va nazorat qilish tartibi to'g'risida Yo'riqnoma va sohaga doir boshqa Nizom va Yo'riqnomalarni tasdiqlaydi;

- universitet ta'assischilari bilan kelishgan holda o'rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga hamda tashkiliy tuzilmaga o'zgartirish kiritish haqidagi qarorlarni tasdiqlaydi.

6.19. universitet rektori o'zi ishlayotgan oliy ta'lim muassasasidan tashqarida haq to'lanadigan rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy – metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

6.20. Universitetning professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- professor-o'qituvchilar tarkibiga stajor-o'qituvchi, o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, professor va kafedra mudiri lavozimlari kiradi;

- belgilangan tartibda universitet va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish;

- Universitetning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

- Universitetning axborot-resurs markazi, axborot texnologiyalari markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan foydalanish;

- o'qitishning metodlari va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- Universitet rahbariyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

- o'zlari ishlayotgan kafedra, fakultetdan tashqari boshqa fakultet, kafedralarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);

- xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;
- o'z fani bo'yicha sifatli darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;
- talabalarning bitiruv malakaviy ishiga va ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- grantlar, ilmiy loyihalar, xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;
- O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

6.21. Universitetning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasining ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasiga oid qarorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- litsenziya talablari va shartlariga, universitetning Nizomi, Ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksi talablariga, universitet rektorining buyruqlari va boshqa topshiriqlariga qat'iy rioya etish;
- xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, Universitet Kengashi qarorlari hamda ish beruvchining qonuniy topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy islohotlardan xabardor bo'lish hamda ularning mohiyatini anglash;
- pedagog xodim sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik, hamkasblar va ta'lim oluvchilarga mehribon, xushmuomala bo'lish;
- ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq dars mashg'ulotlarini sifatli va samarali tashkil etish;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quv rejalarda belgilangan laboratoriya, amaliy va boshqa turdagi mashg'ulotlarni yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o'tkazish;
- shaxsiy ish rejasida belgilangan o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot hamda ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni to'liq bajarish;
- ilmiy-metodik ishlar bilan shug'ullanish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarning shaxsiy mas'uliyati, intizomi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy ishlar olib borish;
- talabalar bilan tarbiyaviy ishlarining bir qismi sifatida ularning ta'lim shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish zarurligi haqida tushuntirish ishlari olib borish;
- talabalarning malakaviy amaliyoti, kurs loyihalari va mustaqil ishlariga, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- talabalarning bilimini reyting nazorati asosida baholash;
- auditoriyadan tashqari ishlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
- yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladigan ta'lim jarayonini amalga oshirish;

- iqtidorli talabalar bilan ishlash, ularni olimpiada va tanlovlarga tayyorlash, mustaqil tayyorlanish shakl va uslublarini takomillashtirish;
- auditoriya mashg'ulotlarini optimallashtirish hisobiga talabalarning mustaqil tayyorlanish hajmini oshirish;
- tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularni muhokama etish, ishlab chiqarishga joriy qilish va nashr etishga tavsiya berish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- tajribali o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va targ'ib etish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;
- o'quv mashg'ulotlari jarayonida zamonaviy texnika vositalari va mustaqil ta'lim olish usullaridan foydalanishi;
- darslik, o'quv, uslubiy va ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash, qayta nashr etiladigan darslik va qo'llanmalarga xulosa berish;
- ta'lim muassasalarining buyurtmasiga binoan zaruriy o'quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlashda ishtirok etish;
- universitet rahbariyati va talabalarning asosli (haqli) e'tiroziga sabab bo'ladigan ta'lim sifati hamda universitetning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir qiluvchi hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik;
- tinimsiz o'z ustida ishlash orqali kasbiy malaka va pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish;
- o'quv yili davomida o'qituvchilar kamida 1 ta, katta o'qituvchilar va dotsentlar kamida 2 ta yuqori impakt faktorli xorijiy jurnallarda va barcha professor-o'qituvchilar OAK ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda kamida 3 ta ilmiy maqolalar chiqarish;
- o'quv yili davomida o'qituvchilar 1 nafar, katta o'qituvchilar 2 nafar, dotsent va professorlar 3 nafar iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, ularni olimpiada va tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash;
- o'z ilmiy tadqiqot yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlarni olib borish, o'quv yili davomida kamida 1 ta tugallangan ilmiy tadqiqot ishlarini ishlab chiqarish (xo'jalik shartnoma) ga joriy etish, tugatilgan ilmiy ishlaridan kamida bitta ilmiy-uslubiy (risola, lug'at va boshq) nashrlarni tayyorlash;
- o'qituvchilar 1 nafar, katta o'qituvchilar 2 nafar, dotsentlar 3 nafar BMI (agar bitiruvchi bo'lsa) ga rahbarlik qilish;
- o'quv yili davomida ilmiy darajaga ega bo'lmagan pedagog xodimlar uchun "Scopus" bazasiga kiritilgan Q-3 va Q-4 ilmiy jurnallariga, PhD yoki fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar uchun Q-2, fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar uchun Q-1 ilmiy jurnallariga maqolalar chiqarish;
- chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;
- "Ustoz-shogird" tizimida ishtirok etib, o'ziga birlashtirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;
- o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnatilgan bo'lish;
- kiyinish madaniyatiga rioya etish;
- respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

- har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlash;

- Respublika, viloyat va universitet miqyosida madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, OAVda chiqishlar qilish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish, sport musobaqalari va jamoat ishlarida faol qatnashish;

- Universitet mulkini asrab-avaylash, suv, issiqlik va elektr energiyasi hamda boshqa moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va bunday munosabatni talabalardan talab qilish;

- universitetda ish samaradorligini oshirish yuzasidan yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish choralariga oid aniq takliflarni bayon etish.

6.22. Universitet professor - o'qituvchi xodimlarining chet el xizmat safarlari amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

6.23. Universitetning professor - o'qituvchilari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda malakasini oshirib boradi.

6.24. Universitetning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari Ichki tartib-qoidalar va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

7. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar.

7.1. Universitet ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat – ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati 4 yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limdir. Qonunchilikda belgilangan tartibda ayrim yo'nalishlarda 3 yil, 5 yil yoki 6 yil bo'lishi mumkin.

Bakalavriat dasturini tugatgan bitiruvchilarga ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda belgilangan namunadagi diplom topshiriladi.

Magistratura – yo'nalishning muayyan mutaxassisligi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o'qish muddati 2 yildan kam bo'lmagan oliy ta'limdir.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha "magistr" darajasi beriladi va belgilangan namunadagi diplom topshiriladi.

7.2. Bakalavr va magistrlik diplomi uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

7.3. Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

7.4. Universitet litsenziyada ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'limning asosiy ta'lim dasturlari, qo'shimcha ta'lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish) dasturlarini amalga oshiradi.

7.5. Universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish, yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasining o'quv reja va fan dasturlari asosida ishlab chiqilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan o'quv rejaları va fan dasturlari, universitet rektori

(o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

7.6. Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan talabalarga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlar yaratib berilishi lozim.

7.7. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki 40 daqiqalik tanaffussiz qo'shma ma'ruza) daqiqalik akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

7.8. Ta'lim olib boriladigan tillar:

o'zbek, rus, ingliz va boshqa xorijiy tillar hisoblanadi.

7.9. Oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari qo'llaniladi.

7.10. Universitetda o'quv yili ikki semestrda bo'linadi va uning har birida talabalarining o'zlashtirishi reyting nazorati shaklida olib boriladi.

7.11. Oliy ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, vazirlik tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq tartibga solinadi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom"ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi bilan tugallanadi.

7.12. Universitetda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

7.13. Universitet O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlari asosida iqtisodiyot, pedagogika va tibbiyot tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etishi mumkin.

7.14. Universitet kengashining tematik rejalari bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligini ta'minlagan holda talabalar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarni keng jalb etib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarni olib borishi mumkin.

7.15. Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

- fan, texnika va madaniyatning muhim yo'nalishlari bo'yicha amaliy, fundamental hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari;

- Universitetning mablag'lari;

- shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan xorijiy tashkilotlar mablag'lari;

- hayriyalar yoki beg'araz berilgan moliyaviy yordamlar.

7.16. Izlanuvchi (falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan universitet pedagog-xodimi):

7.17. Universitet Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminarning ijobiy xulosasiga ko'ra dissertatsiya himoyasi o'tkazilishiga ruxsat berilgan izlanuvchini ilm-fan va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun moddiy qo'llab quvvatlaydi va quyidagi majburiyatlar yuklaydi:

- Izlanuvchi - ilmiy dissertatsiyasini muddatida muvaffaqiyatli himoya qilishi;
- dissertatsiya himoyasidan so'ng kamida 5 yil Universitetda ishlab berish;
- universitetdagi 5 yillik faoliyati davomida: dotsent ilmiy unvonini olish, universitetning yosh izlanuvchilariga ilmiy rahbarlik qilish, navbatdagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini yakuniga yetkazish lozim.

7.18. Moddiy rag'batlantirilgan izlanuvchi shartnomaga muvofiq 5 yil davomida universitetda ishlamagan taqdirda, ishdan bo'shash muddatidan qat'iy nazar shartnomaga asosan to'lab berilgan mablag'ni besh hissa ortig'i bilan universitetga qaytaradi (yuqori tashkilotlarning tavsiyasi bilan boshqa tashkilotlardagi lavozimga tayinlangan, oilaviy sharoitiga ko'ra yashash manzilini boshqa viloyatga o'zgartirgan pedagog xodimlar bundan mustasno).

7.19. Universitetning tarkibi.

Universitetning tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) rektorat (rektor, prorektorlar va maslahatchilar);

b) fakultetlar;

v) kafedralar;

g) boshqarma va bo'limlar;

d) departament va markazlar;

7.20. "Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq universitetda faoliyatning asosiy masalalarini ko'rish uchun kamida 7 nafar professor-o'qituvchi va xodimlardan iborat Kengash tashkil etiladi.

7.21. Rektor Kengash raisi hisoblanadi, Kengash tarkibiga rektor maslahatchilari, prorektorlar, fakultet dekanlari hamda kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari, shuningdek, talabalar va oliy ta'lim muassasasi xodimlari, kasaba uyushmasi kengashi vakillari kiradi. Professor-o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug'i bilan belgilanadi.

7.22. Universitetda amaldagi nizomlarga muvofiq mahalliy hokimiyat, ishbiarmon doiralar, jamoatchilik tashkilotlari, jamg'arma va vasiylar, hududdagi obro'-e'tiborli shaxslar hamda boshqa ta'lim tashkilotlarining vakillaridan iborat Vasiylik kengashi, ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi va boshqalar tuzilishi mumkin.

7.23. Universitetda kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatishi mumkin. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni ta'lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning oliy ta'lim muassasasida saylangan organlari amalga oshiradi. Talabalar va xodimlarning huquqlari va ularga nisbatan oliy ta'lim muassasasi ma'muriyatining majburiyatlari lokal hujjatlarda belgilanadi.

Rektorat va Kengash o'z faoliyatida universitet jamoatchilik muassasalarining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va o'z faoliyatida ularni hisobga oladi.

7.24. Universitet fakultetlarini rektor tomonidan tayinlanadigan dekan boshqaradi.

Fakultet dekani o'z faoliyatida "Oliy ta'lim muassasasining fakulteti to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi, ushbu Nizomga muvofiq fakultetda kengash tashkil etilishi mumkin.

7.25. Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va faoliyatining tartibi "Oliy ta'lim muassasasi fakultetining Kengashi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

8. Moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy-texnik baza.

8.1. Universitet o'z faoliyatini o'zini o'zi moliyalashtirish (xo'jalik hisobi) prinsipi asosida amalga oshiradi.

Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

- bakalavriat talabalari va magistrantlarni to'lov-kontrakt shakli asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida o'tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo'yicha amaliy, fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

- pullik kurslarni tashkil etish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatishdan tushadigan barcha mablag'lar;

- xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

- jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari va maqsadli badallari;

- Universitet faoliyatida amalga oshirilgan ilmiy, o'quv va boshqa innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek Universitetning mol mulkini ijaraga berishdan, shartnoma asosida qonun hujjatlarida ruxsat berilgan xizmat ko'rsatish orqali tushgan mablag'lar hamda qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag'lar.

8.2. Universitetga ushbu Nizomda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan ta'sischilar tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, oliy ta'lim muassasasining pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shartnoma asosida bino va inshootlar, jihozlar, shuningdek iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktiriladi.

8.3. Universitetga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'a, hadya yoki vasiyat bo'yicha berilgan pul mablag'lari, mol-mulk va boshqa mulkiy ob'ektlarga, universitet faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o'z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob'ektlarga egalik qilish huquqi beriladi.

8.4. Universitet mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq universitet o'ziga biriktirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi va boshqa mol-mulklarni belgilangan narxlar bo'yicha ijaraga berishi mumkin.

Ijara haqi sifatida olingan mablag'lar ta'lim sifatini ta'minlash va uni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

8.5. Universitetning ta'lim faoliyatini moliyaviy ta'minlash – talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan to'lov-shartnoma asosidagi mablag'lar, shuningdek davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan budjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

8.6. Universitetning asosiy faoliyatiga zarar yetmaydigan tartibda ta'lim va boshqa sohalarda pullik xizmat faoliyatini amalga oshirish mumkin.

8.7. Universitet ta'sischilari universitetning mulki bilan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning Nizom jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lim xizmatlari,

konsultatsiyalar, konsalting va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

8.8. Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Nizomga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni ta'sischi bilan kelishgan holda hal qiladi.

8.9. Universitetda lavozim maoshlari mehnat shartnomasi (bitimi) tuzilayotganda "Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida Nizom" va mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi.

Xodimga lavozim maoshi (stavka) o'z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini ta'sischi bilan kelishgan holda belgilaydi.

8.10. Universitet rektori buyrug'i bilan ta'lim faoliyatida alohida yuksak natijalarga erishgan professor-o'qituvchilar va xodimlarga ularning lavozim maoshiga 50 foizgacha ustama belgilanishi nazarda tutiladi.

Ijobiy ish natijalariga, ta'lim va xizmat faoliyatida kutilgan samaraga erishmagan professor-o'qituvchilar hamda xodimlarga nisbatan mazkur ustama qo'llanilmasligi yoki mavjud ustama universitet rektori buyrug'i bilan bekor qilinishi mumkin.

8.11. Universitetda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi.

8.12. Universitetning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti ta'sischi va jamoatchilik kengashi qarori asosida qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8.13. Universitet ta'sischilarning rozigi bilan Jamoatchilik kengashining qarori asosida amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan homiylik, xayriya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarida ishtirok etish huquqiga ega.

9. Hisob va hisobot

9.1. Universitetda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan hisobotlar yuritiladi va belgilangan muddatda tegishli idoralarga topshiriladi.

9.2. Universitetning yil yakuni bo'yicha olingan daromadlaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlar, universitetda tashkil etilgan fondlarga ajratilgan mablag'lardan qolgan qismi ta'sischilarning umumiy yig'ilishi qarori asosida ta'sischilarning qo'shgan ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

9.3. Universitet uchun moliyaviy yil 1 yanvardan 1 yanvargacha belgilanadi.

10. Xalqaro hamkorlik

10.1. Universitet O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi. Universitet chet davlatlardagi ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va nodavlat ta'lim muassasalari bilan bevosita hamkorlik o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma ta'lim dasturlari va qo'shma ta'lim muassasalarini tashkil etish huquqiga ega.

10.2. Universitet professor-o'qituvchilari va xodimlarining xorijda malaka oshirishi, stajirovkadan o'tishi, ilmiy tadqiqotlar olib borishi, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish, talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha xalqaro ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy va tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar

bilan hamkorlikni belgilangan tartibda amalga oshiradi va rivojlantiradi. Universitet pedagog, ilmiy va texnik xodimlar hamda talabalarning xalqaro konferensiyalar, grantlar, loyihalar va akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etishini moddiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

10.3. Pedagog, ilmiy va boshqa xodimlarning xorijda stajirovka o'tashi, malaka oshirishi, xalqaro ta'lim va tadqiqot dasturlarida ishtirok etishi universitet mablag'lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari, shuningdek universitetning xorijiy hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

10.4. Chet el fuqarolarini universitetda o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek universitet ilmiy-pedagogik xodimlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ta'lim va ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish xorijiy davlatlarning tegishli organlari bilan tuzilgan shartnomalarga hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

10.5. Universitet xorijiy professorlar, ekspertlar va mutaxassislarni mehnat shartnomalari, grantlar, loyihalar yoki ta'lim xizmatlariga doir boshqa shartnomalar asosida jalb etishi mumkin.

10.6. Universitet milliy va xalqaro reytinglarda ishtirok etish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tish va institutsional baholash jarayonlarini amalga oshiradi.

10.7. Universitet quyidagi huquqlarga ega:

- xalqaro nodavlat tashkilotlarga belgilangan tartibda a'zo bo'lish.
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralmaydigan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlik doirasida shartnomalar va memorandumlar tuzish.
- xorijiy sheriklar ishtirokida universitet tarkibiy bo'linmalarini (markazlar, kafedralar, laboratoriyalar, innovatsion texnoparklar va boshqa tuzilmalar) qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etish.

10.8. Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ushbu Nizomda belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

10.9. Universitetning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta mablag'lari va moddiy tushumlar qonunchilikka muvofiq uning Nizomda belgilangan vazifalarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladi.

11. Hujjatlarni saqlash

11.1. Universitet:

Universitetning Nizomini, Nizomga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, Universitetni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, Universitet davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;

Universitetning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;

Universitet umumiy yig'ilishining qarori tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;

Universitetning filiali yoki vakolatxonasi haqidagi nizomni;

Universitetning yillik hisobotini;

buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;

tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;

Universitet ta'sischilarining Umumiy yig'ilishlarinin qarorlarini, Universitet rektori buyruqlarini;

Universitet ta'sischilarining reestrlarini;
auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart.

Universitet qonun hujjatlariga va mazkur Nizomga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

12. Universitet tomonidan yirik bitimlar tuzish

12.1. Universitet tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Universitet sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar bitimlar bundan mustasno.

12.2. Yirik bitim Universitet ta'sischilari umumiy yig'ilishining qarori bilan amalga oshiriladi.

12.3. Yirik bitim tuzishi to'g'risidagi qaror qonunga muvofiq qabul qilinadi.

13. Universitet qayta tashkil etish va tugatish

13.1. Universitetni qayta tashkil etish, qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

13.2. Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ta'sischilar umumiy yig'ilishining qarori asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

14. Yakuniy qoidalar

14.1. Mazkur Nizom ta'sischilar umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

14.2. Ushbu Nizomning amal qilishi Universitetning butun faoliyati davriga tadbiq qilinadi.

14.3. Universitetning Nizomiga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish ta'sischilarning umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlanadi amalga oshiriladi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

14.4. Nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Ta'sischi



Ch.B.Usmanov